



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Lobar Fayzullo qizi Choriyeva

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim
fakulteti 1-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: Gulbahor Abdullayevna Gaynazarova

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlaydigan pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining muhim rolini o'rganadi. Samarali ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olgan pedagoglar o'z ta'lim usullarini yaxshilashlari, o'quvchilarni faolroq jalb qilishlari va optimal o'quv muhitini yaratishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *proffessionallik. ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetentligi, pedagoglar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim usullari, axborot va resurslardan foydalanish imkoniyati, interfaol ta'lim, kasbiy rivojlanish, muloqot va hamkorlik, ota-onalarning ishtiroki va muloqoti, tadqiqot va innovatsiyalar.*

**ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Аннотация: *В данной статье рассматривается важная роль образовательных технологий в повышении профессионального мастерства педагогов, работающих в дошкольных образовательных организациях. Преподаватели, применяющие эффективные технологии обучения, могут улучшить свои методы обучения, более активно вовлекать учащихся и создавать оптимальную среду обучения.*

Ключевые слова: *профессионализм. образовательные технологии, профессиональные навыки, педагоги, организация дошкольного образования,*



методы обучения, доступ к информации и ресурсам, интерактивное обучение, профессиональное развитие, общение и сотрудничество, участие и общение родителей, исследования и инновации.

TECHNOLOGIES OF PROFESSIONAL COMPETENCE FORMATION OF TEACHERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstrakt: *This article examines the important role of educational technologies in improving the professional skills of pedagogues working in preschool educational organizations. Educators who incorporate effective learning technologies can improve their teaching methods, engage students more actively, and create optimal learning environments.*

Key words: *professionalism. educational technologies, professional skills, pedagogues, preschool education organization, educational methods, access to information and resources, interactive learning, professional development, communication and collaboration, parent involvement and communication, research and innovation.*

Kirish. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ko‘lamida maktabgacha ta’lim dasturlar ham chetda qolmagan, yillar davomida ushbu tashkilotlardagi bolalarning kelajagini porloq bo‘lishini o‘ylagan holda ularga ta’lim beruvchi pedagoglarning kompetentligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda pedagoglarning ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Qolaversa, pedagoglarga o‘z bilimlarini oshirishda, uslublarini keng ko‘lamda rivojlantirishda qo‘shimcha ta’lim berish bosqichlari ham tashkil etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan pedagoglarning deyarli barchalari tashkilot rahbarlari tomonidan doimiy nazorat qilinadi, sababi shundaki, ularning kasb kompetentligini ko‘rsatishi oddiy jarayon emas, balki, juda muhim bosqichlardan biri bo‘lganligidadir. Ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash lozim, masalan, hozirda hukumatimizda axborot texnologiyalari rivojlanishiga katta e’tibor berilayotgani ham



bejiz emas, shuningdek AKT soxasida yangiliklar qilish barcha pedagoglarga bog‘liq muhim bosqichlardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizning “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Davlat ta’lim standartlari” talablaridan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu bois yosh avlodni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. bizning respublikamiz. “Yoshlar xalqni millat qiladi. “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari kerak” –avlodni tarbiyalashdir.

Kompitentligi –ta’lim va o‘qitishning yuksak va yuksalish san’ati. Pedagog o‘z ishinig ustasi, o‘z fanini chuqur biladigan, fan va san’atning tegishli sohalarini yaxshi biladigan, amaliyotda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunadigan, o‘qitish va tarbiya usullarini puxta biladigan, o‘z ishini puxta o‘zlashtirgan, o‘z fanini puxta o‘rganadigan, o‘z fanini chuqur egallagan shaxsdir va yuqori madaniyatli mutaxassis hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarning malakasini oshirishda seminarlarning o‘rni qanchalik muhim bo‘lsa, ma’ruzalarning o‘rni ham shunchalik katta. Atoqli pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida ustoz shaxsi, uning faoliyati haqidagi fikrlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning ta’kidlashicha, bolaning sog‘lom ulg‘ayishida ota-onaning o‘rni alohida bo‘lsa, uning intellektual rivojlanishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos. Xususan, bolalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish “ustoz ma’sulyatiga yuklangan, ularning vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa” va “Tafakkurning kuchi, bezakliligi, kengligi o‘qituvchi tarbiyasiga bog‘liq.” ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. O‘z davrida Yan Amos Komenskiy bola dunyoqarashini rivojlantirishda o‘qituvchining rolini juda yuqori baholagan va o‘qituvchilik “Yer yuzidagi barcha kasblardan yuqori bo‘lgan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlagan. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchini chuqur anglashi, uning qadrini to‘la-to‘kis anglay olishi zarur. O‘qituvchi obrazini tasvirlab,



Ya.A. Komenskiy o'z shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, mehnatsevar, izchil, axloqli, o'z ishini sevadigan, o'quvchilarga otalaridek munosabatda bo'ladigan, ularga bilim singdiradigan, ularda hayrat uyg'otuvchilik jihatlariga egaligi. K. D. Ushinskiy o'qituvchilarning ma'naviy-ruhiy va kasbiy faoliyatini yuksak baholab, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq, degan fikrni ilgari suradi. Bu g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim birinchi bo'lib pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim texnologiyalarini yaratishda va ularni takomillashtirishda doimiy tarzda uzluksiz harakatlar olib borilishi lozim, vaholanki harakatlar strategiyasi qanchalar intellektual salohiyatli tashkil etilgan bo'lsa, ko'zlangan maqsadga shuncha tez va yuqori natijalar bilan erishiladi. Ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda qo'llaniladigan usullardan bir qanchasi hozirda amalda tasdiq topgan texnologiyalardan biridir, ulardan:

- axborot resurlaridan keng ko'lamda foydalanish;
- interfaollashtirilgan ta'lim tizimini takomillashtirish;
- masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish;
- innovatsion usullardan foydalanish va hokazolar,

Yuqorida sanab o'tilgan texnikalar hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirishga ruxsat berilgan texnologiyalardan hisoblanadi.

Axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishda, pedagoglar zamon bilan hamnafas bo'lgan xolda, ta'lim berish bosqichlarini axborot resurslari orqali amalga oshirishlari ko'zda tutilgan, axborot resurlariga hozirdagi elektronlashgan axborotlarni tushunamiz, respublikamizda axborot resurslaridan foydalanish kundankunga rivojlanmoqda.

Interfaollashgan usullar yordamida pedagog bolaning ta'lim va bilimni qabul qilish tizimiga ta'sir o'tkazadi, ushbu so'z ingliz tilidan olingan bo'lib, "interaction" "o'zaro ta'sir" degan ma'nolarni anglatadi. Pedagog ushbu bosqichda iloji boricha



o'zi egallagan barcha texnikalardan foydalanishi ko'zda tutilgan, bola va pedagog o'rtasidagi muvozanat ham aynan shu faollikga bog'liq. Masofaviy ta'limni joriy etishda, ko'pincha vaziyatdan kelib chiqilgan holda AKT vositalaridan foydalaniladi.

Innovatsion usullardan foydalanish hozirgi davr talabi hisoblanib, har tadqiqotda mana shu tizimni uchratish mumkin. Ushbu usul yordamida pedagoglarda kompetentligini oshirish bosqichlari ancha yengillashadi va sifatli yakunlanadi, innovatsion tizimni ham reja asosida amalga oshirgan ma'qul, sababi rejali amalga oshirilgan tizim algoritmda hech qanday xatoliklar va kamchiliklar kuzatilmaydi.

Pedagoglarning kompetentligidan kelib chiqqan xolda ular tashkilot tomonidan baholanib boriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, pedagogik madaniyat-pedagogning talabchanligi, adolatliligi, komilligi, rostgo'yligi, to'g'riligi, uning burchi, mas'uliyati, qadr-qimmat, vijdoni, axloqiye'tiqodini hisobga olish tushuniladi. Pedagogik takt (takt) pedagogik kompetentligi tizimida o'qituvchining pedagogik qobiliyati chegarasi, foydali, qimmatli o'z-o'zini o'lchashi, ifodalash va ta'sir qilish vositalari bilan tavsiflanadi. Pedagogik kompetentligi tartiblari, malaka, malaka qismlari pedagogning kasbiy ta'minotini boyitadi va uni kompetentligiga yetaklaydi, pedagogning pedagogik mazmunini topishga yordam beradi. Biroq, unga tayanib, o'z kasbining ustasi bo'lib, ish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam pedagogik fikrlash, pedagogik tafakkur, pedagogik faoliyat zarur. Demak, shaxsning o'z rivojlanishi pedagogik hodisa va muammolarni yaratish odatini, har bir bog'lanish jarayonini tushunishga intilish, kundalik tahlilni mustaqil tahlil qilish, yangi ta'lim-tarbiyaviy g'oyalarni oldingilari bilan solishtirish qobiliyatini talab qiladi. Asosiy pedagogik va psixologik yordamni topish va ularni hal qilishning eng qulay usullarini topish haqida o'ylash kerak. Insonparvarlik inson qadr-qimmat, erkinligi, baxt-saodati va teng huquqliligi haqida qayg'urish, insonning barcha imkoniyatlarini yaxshilash uchun motivatsiyaga ega bo'lishni anglatadi. Pedagoglarning individual yordamini hisobga olish, ulardan foydalanishni to'g'ri amalga oshirish, oldindan belgilangan ma'naviy holatga to'g'ri munosabatda bo'lish, uni boshqalar tomonidan ushlab turish va hokazolar tushuniladi. Yuqorida,



pedagoglarni kasbiy kompetentligilarini qo'llab quvvatlash masalasiga oid omillar ko'rib chiqilgan bo'lsada, ularni amalda qo'llash ham pedagoglarning kompetentligiga bog'liq hisoblanadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Met.qo'll.U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
2. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o'uv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O'quv qo'llanma. - Toshkent, O'qtuvchi, 1996, - 301-bet.
3. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik kompetentligi. O'quv qo'llanma. T.:2003 y
4. Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29.
5. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2),326-329.
6. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021. 00358. X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN, 2249-7137.
7. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
8. Гайназарова, Г. А. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 3).